

9-10-2020

LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK

Mukhayyo Umedilloevna Saidova

Bukhara state university PhD student of English linguistics department

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Saidova, Mukhayyo Umedilloevna (2020) "LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 2 : Iss. 9 , Article 45.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss9/45>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD
DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY Ch. BALDICK

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2020 йил 9 сон

K. BOLDIKNING ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARI QISQACHA OKSFORD IZOHLI LUG'ATINING LEKSIKOGRAFIK VA ETIMOLOGIK TAHLILI

Saidova Muxayyo Umedilloevna

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida tayanch doktoranti

Тел:90 712-59-95 e-mail: mukhayyo1981@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqolada adabiyotshunoslik terminlarining o'rganganlik darajasi va ahamiyati to'g'risida to'xtalib, Kris Boldikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" lug'atining e'tiborga molik tomonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan va undagi adabiyotshunoslik terminlarining leksikografik tahlili berilgan. Lug'atdagi to'liq o'zlashtirilgan va boshqa tillardan o'zgarishsiz kirib kelgan terminlar borasida izlanishlar bayon qilingan.

Тayanch so'zlar: terminologiya, adabiyotshunoslik terminlari, konsept, etimologiya, lug'at, tezaurus, lug'aviy birlik, adabiyot nazariyasi va tarixi, epic, lirik, drammatik.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КРАТКОГО ОКСФОРДСКОГО СЛОВАРЯ ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

К. БОЛДИКА

Саидова Мухайё Умедиллоевна

Бухарский государственный университет

Базовый докторант кафедры английского языкознания

Тел:90 712-59-95 e-mail: mukhayyo1981@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются степень изученности и значимость литературных терминов; даётся информация о значимых аспектах словаря Криса Болдика "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" и дан лексикографический анализ литературных терминов. Также описывается исследования по терминам, которые были полностью освоены и введены без изменений с других языков.

Ключевые слова: терминология, литературные термины, концепт, этимология, словарь, тезаурус, словарные единицы, теория и история литературы, эпика, лирика, драма.

LEXICOGRAPHIC AND ETHYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS

BY Ch. BALDICK

Saidova Mukhayyo Umedilloevna

Bukhara state university

PhD student of English linguistics department

Phone number:90 712-59-95 e-mail: mukhayyo1981@mail.ru

Abstract. The degree of study and significance of literary terms are carried out in the given article. The article also gives information about the significant aspects of dictionary by Chris Baldick "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" and lexicographic analysis of literary

terms. Research on terms that have been fully borrowed and introduced unchanged from other languages is described as well.

Keywords: *terminology, literary terms, concept, etymology, dictionary, thesaurus, dictionary units, theory and history of literature, epic, lyric, dramatic.*

Terminlarning taraqqiyoti jamiyatning yuksalishi, xo'jalik, texnika, fan, san'at, adabiyot va boshqa sohalarning ravnaq topishi, adabiy tilning o'sishi bilan uzviy bogliq jarayondir. Chunki paydo bo'lgan har bir yangi tushuncha tilda ham o'z in'ikosini topadi. Fan, ma'daniyat va texnika beqiyos rivojlangan hozirgi davrda terminlar doirasi benihoya keng va xilma-xildir. Hozirgi termin asosan fan va texnika tiliga aylanib rivojlangan tillarda yangi so'zlarning deyarli 90 %ini ilmiy-texnika terminlari tashkil etadi. Shuning uchun ham terminologiya milliy tillarning o'ziga xos taraqqiyot mezoniga, tillarning o'zaro aloqasi va yaqinlashib borishida muhim omillardan biriga aylangan.

Terminologiya fani doirasida olib borilgan dastlabki izlanishlar D. S. Lotte tomonidan olib borilgan bo'lib, butun dunyo terminologiya fanining otasi deya tan oladigan buyuk olim 1931-yilda texnik terminologiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi. Shundan so'ng 1934-yilda E. K. Drezening, 1934-yilda G. O. Vinokurning va 1986-yilda A. A. Reformatskiylarning terminologiyaga bag'ishlangan ishlari e'lon qilindi. Bu tadqiqotlarning barchasini terminologiya fanining asoslari deya e'tirof etishimiz mumkin chunki aynan shu ishlar asosida terminologiya fani nazariyasi ishlab chiqilgan edi. Ushbu ishlar asosida terminologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari ham belgilab olindi: A. A. Reformatskiy (1986), B. N. Goloven (1981), N. P. Kuzkin (1968), L. A. Kapanadze (1965) va boshqalar terminning maqomini, O. S. Axmanova (1990), V. P. Kaprovich (1978), R. Y. Kobrin (1991), B. M. Leychik (1986), V. D. Tabanakova (1998), E. N. Tolikina (1970) va boshqalar termin mazmuni xususiyatlari, A. S. Gelt (1991) termin va nomenklatur birliklarning o'zaro munosabatlari, M. V. oganisyana (2003), O. V. Dovbish (2003), S. V. Saxneevich (1998) termin tarjimasini masalalari, Z. M. Polyutina (2002) termining sivilizatsion yondashuvlarini tadqiq etganlar.

Termin va nomenklatura haqidagi bir qancha izlanishlardan so'ng, XX asning oxirlariga kelib terminologiyaning leksikografik asoslari ham yaratila boshlandi, ya'ni bir qator tilshunos olimlar terminlar taksonomiyasini ishlab chiqish ularni kategoriyalashtirish va lug'at tarkibiga keltirish ustida ish olib borganlar. Buning natijasida esa bir qator terminologik lug'atlar jahon yuzini ko'rdi. Chunonchi Shamledi zoonimlarni, Repko, barishnikova, Bulax bir- birlaridan alohida holda flonimlarni, manerko artifaktlarni, grebulskeya, Xalikova, Maskovich Ijtimoiy-siyosiy terminlarni, Turushkova sotsiologiya terminlarini, Konovalova, Saxneevich, Burnistrova, Rahimberdiyev iqtisodiy terminlarni, maksimenko, Ivanenko yuridik terminlarni Volfbekg, Ivanov, Oganisyana tibbiyot terminlarini, Kvartich antroponimlarni o'rganganlar. Bundan tashqari, texnologik terminlar, ommaviy axborot vositalari terminologiyasi, tijorat, ilmiy adabiyot, byurokratiya terminologiyasi, me'morchilik, harbiy soha, musiqa, falsafa, teatr, sport, munosabatlar terminologiyasi, geografiya, matematika, geologiya, konchilik, tarjima lingvo-didaktika, dialektologiya terminologiyasi kabi sohalar ham olimlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Keyinchalik ham ko'plab olimlar sohaviy terminologiya ustida izlanish olib borganlar.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan tashqari lingvistika sohasiga mansub terminlar ham ancha chuqur o'rganilganini ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslik terminlar haqidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar Akmanova (1966, 1990), Vasileva (1998), Guishiani (1986, 1990), Golovin (1976), Kulikova (2002), Petrosyants (2004), Podolskaya, Slyusarova (1983, 2000), Shelov (1998) va boshqalar tomonidan olib borilganligi bizga ma'lum. So'nggi yillarda ham tilshunoslikka doir ilmiy amaliy ishlar e'lon etib borilgan bo'lib, bular sirasiga biz Nikulina (1990), Utkina (2001), Emelyanova (2000), Vermeer (1971), Zaxarenkova (1999), Nemis (1990), Golovkina (1996) kabilarning ishlarini keltirishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy ishlar ro'yxatiga e'tibor beradigan bo'lsak, bulardagi atamalarning kamdan kam hollardagina roman, german va Slovak tillarida olib borilganligini kuzatamiz. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy-gumanitar sohaga doir, jumladan falsafiy, madaniy, axloqiy, estetik, diniy, lingvistik va ayniqsa adabiyotshunoslik terminlarini o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Biz nega aynan adabiyotshunoslik terminlarini eng dolzarblari orasida sanayotganimizning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan adabiyotshunoslik fan sohasining o'zi anchayin muammolarga boy yechimini kutayotgan masalalari bisyor fan bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, adabiyotshunoslik ilmining rivoji ham adabiy terminologiyaning o'rganilish izchilligi va rivojiga bevosita aloqador. Adabiy terminologiyada mavjud muammolarning yechilishi bilan adabiyotshunoslikda mavjud bo'lgan muammolar ham o'z yechimlarini topadi. Uchinchidan adabiyotshunoslik terminologiyasining muammo va masalari nafaqat adabiyot sohasiga balki madaniyatshunoslik, tarix, etnografiya va etimologiya sohalariga ham aloqador bo'lib, agar adabiyotshunoslikdagi masalalar hal etilga bu fanlarning ham rivojiga ulkan hissa qo'shilingan bo'ladi.

E. G. Petrosyantsning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda yer yuzida tilshunoslik faniga doir 70 dan ortiq lug'atlar, ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar mavjud. Shu bilan birgalikda ta'kidlab o'tiladiki, ularning orasida lug'atlar va ensiklopediyalarga adabiy jihatdan mos keladigan kitoblar nisbatan kam uchraydi. Bu holat adabiyot shartlarining yetarlicha o'rganilmaganligini va ular to'g'risidagi ma'lumotlar tizimlanmaganligini ko'rsatadi [5; 11].

Kris Boldik mashhur ingliz adabiyotshunosi, lingvist olim bo'lib uning jahonda mashhur bir qator ilmiy asarlari mavjudki, olimning shaxsini ilmiy maydonda ahamiyatlilik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Biz tadqiqot ob'yekti qilib olgan, uning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" lug'ati 1990-yilda birinchi marotaba nashr etilgan bo'lib, 1991-yilda qaytadan Oxford University Press nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Shundan so'ng, 1996-yilda yangi jild bilan qayta ishlangan nashr chop etildi. 2001-yilda biz o'z ishimiz uchun tanlagan ikkinchi nashri chop ettirildi. Bu lug'at Kris Boldikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" ya'ni "Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati"ni tuzishdan asosiy maqsad kundalik duch kelinadigan terminlarni izohlash emas balki tushunilishi qiyin bo'lgan kamdan kam duch kelinadigan terminlarga izoh berish bo'lgan. Lug'atda terminlar alifbo tartibida berilgan bo'lib, un 1000 dan ortiq terminlarni o'z ichiga oladi. Ushbu lug'at adabiy tanqid yoki adabiy konseptlar uchun yo'l boshlovchi bo'lishni yoki foydalanishdagi barcha adabiy terminlarni kataloglashtirishni nazarda tutmaydi balki biror bir adabiy

asarni o'qish jarayonida yoki adabiy tanqidiy bahs munozaralar davomida o'quvchiga shubha uyg'otadigan yoki uni chalkashtiradigan mingdan ortiq terminlarni yoritib beradi. K. Boldik kitobini ensiklopedik mukammallik darajasiga yetkazish o'rniga bir nechta turdagi terminlarni tushirib qoldirishni afzal biladi. Masalan, odatiy tilda uchraydiganlari: *anagram, biography, cliché*, ko'rgandayoq tushunarilari: *detective story, psychological criticism*, va umumiy konseptlarni ifodalovchi keng ma'noli kategoriyalar: *art, belief, culture* va hokazo. Lug'at o'zida bir qancha muhim bo'lgan chet tillaridan o'zlashgan terminlarni ham o'z ichiga oladi va ular asosan lotin, italian, grek, nemis, rus, ispan va yapon tillaridan olingan va shunga muvofiq tarzda ularning talaffuzi ham alohida tushuntirib o'tilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, adabiyotshunoslik terminlarining rivoji shu millat adabioti san'ati, ma'daniyati va tilining ham rivoji bilan chambarchas bog'liq. Aynan shuning uchun ham biz "Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati" dagi terminlarni etimologik jihatdan tahlil qilib chiqdik va quyidagi natijalarga erishdik:

Kris Boldikning "Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati" da berilgan 1060 termindan 118 tasi qanday bo'lsa shundayligicha boshqa tillardan o'zlashtirishsiz kirib kelgan terminlar. Ushbu lug'atda o'z qatlam va o'zlashma qatlam terminlar quyidagicha:

Jadval 1

1	Ingliz leksikoniga to'liq o'zlashtirilgan terminlar	89%
2	Boshqa tillardan o'zgartirishsiz kirib kelgan terminlar	11 %

Kris Boldikning o'zi kitobi muqaddimasida bergan ta'rifiga ko'ra, bu kitob har kuni adabiyotshunoslikda uchraydigan oddiy terminlarni emas, balki hamma ham tushuna olmaydigan, unchalik ham keng tarqalmagan terminlarni qamrab oladi. Shuning uchun ham, berilgan 1060 so'zlarning aksariyati ingliz adabiyotshunosligiga transliteratsiya va transkripsiya usullari bilan o'zlashtirilgan bo'lib, ularning ham orasida qadimgi grek, lotin va fransuz adabiyotining terminlari juda ko'plab uchraydi. Terminlarning izohini berish jarayonida ularning kelib chiqishi va adabiyotshunoslik tarixi fani bilan uzviy bog'liqlikda olib borilsada bu fan o'z doirasida yana madaniyatshunoslik, leksikologiya va tarjima ilmi bilan bog'liq bilimlarni ham talab qiladi.

Ingliz tiliga to'liq o'zlashtirilgan va biz uchun obyekt vazifasini bajaruvchi lug'atda hech qanday o'zgartirishlarsiz kirib kelgan terminlarga e'tiboringizni qaratishni joiz deb topdik:

1	Fransuz tilidan	57 %
2	Nemis tilidan	19 %
3	Lotin tilidan	9 %
4	Italyan tilidan	5 %
4	Qadimgi yunon tilidan	3 %
5	Rus tilidan	2 %
6	Yapon tilidan	4 %
7	Ispan tilidan	1 %

Jadval 2

Jadvallardan ko'rinib turibdiki, Kris Boldikning "Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati" da izohlangan terminlarning aksariyati ingliz tilida to'liq o'zlashtirilgan bo'lsa hamki, ular orasida izohlangan terminlar orasida chet tilidan qanday bo'lsa shundayligicha o'zlashtirilgan terminlarning borligini ko'rishimiz mumkin. Ularning aksariyati janrlarga oid so'zlarni tashkil etib, masalan, lug'atda izohlangan yaponcha terminlarning hammasi yapon she'riyatidagi janrlar bo'lib hisoblanadi. O'zlashgan qatlam terminlarining aksariyati fransuz adabiyotshunosligiga oid terminlar ya'ni jami o'zlashgan qatlam terminlarining 57 %ini tashkil etib, buning izohi sifatida aytishimiz mumkinki, fransuz adabiyotining ta'siri ingliz adabiyotiga hamisha ulkan bo'lib kelgan. Bu ikki xalq madaniyat, tarix, san'at va badiiy adabiyot sohalarida bir-birlari bilan hamnafas rivoj topib borganlar. Nemis adabiyotiga mansub terminlari ham boshqa terminlarga nisbatan ko'proq uchragan bo'lib, u jamining 19 %ni tashkil qiladi. Buning sababi nemis va ingliz tillarining mushtarakligini keltirishimiz mumkin.

Adabiyotshunoslik terminlarining shakllanishi va takomili so'z san'ati va adabiyotshunoslikning shuningdek, adabiy tilning taraqqiyoti bilan uzviy bogliq. Kris Boldikning mashhur "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" ya'ni "Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati"ni tuzishdan asosiy maqsad kundalik duch kelinadigan terminlarni izohlash emas balki tushunilishi qiyin bo'lgan kamdan kam duch kelinadigan terminlarga izoh berish bo'lgan. Lug'atdagi terminlar alifbo shaklida tartibga solingan bo'lib, ushbu lug'at 1060 ta terminlarni o'z ichiga oladi va shulardan 118 tasi boshqa tillardan o'zlashtirishsiz, ya'ni qanday bo'lsa shundayligicha boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abrams M. H. *A Glossary of Literary terms*. – Heinle & Heinle, a division of Thomson Learning, Inc., 1999.
2. Baldick Chris. *The Concise Oxford Dictionary of Literary terms*. - Oxford: Oxford University Press, 2001.
3. Cuddon J.A. *Dictionary of Literary terms and literary theory*. – Fourth edition published in Penguin Books, 1999.
4. McArthur T. *The Concise Oxford Companion to the English Language* Oxford: Oxford University Press, 2005.
5. Petrosyants E.G. *Linguistical terminopoly: structure, semantics, derivation: on English material*. – Pyatigors, 2004.

28	Таълим соҳасида ижтимоий шериклик Алиханов М М	165
29	Оилада ўзаро меҳр муҳитини қадрият асосида шакллантириш жамият тараққиётининг гарови Бозорова Р Ш	172
30	Концептуальные основы развития военной культуры в вооружённых силах республики узбекистан Хашимова Г. И	178
31	Глобаллашув шароитида ўқувчи ёшларда илмий инновацион дунёқарашни шакллантиришда илмий-маънавий меъросни ўрганишнинг аҳамияти Худайназаров Н.Ш.....	184
32	Амир Темур ва Темурийлар даври фалсафаси ҳақида мушоҳада Алиқулов Ҳ	189
33	Илмий тафаккур тарзининг конструктив трансформацияси Султанова Г.С	194
34	Коррупцияга қарши курашишнинг маънавий-маърифий асослари Сохибов С	198
35	Умар Хайём рубоийларининг талқин ва тавсифи. Шодиев Ж Ж	206
36	Ҳалол кадрлар тайёрлаш тизимини яратишнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари Тожибоев С.П	211
37	Особые аспекты формирования стратегии жизни молодежи Исмоилов Т И	215

10.00.00

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES**

38	Шукур Холмирзаевнинг ҳикоячиликдаги маҳорати Тошпўлатов А	220
39	Мустақиллик даври ўзбек драматургиясида жанрлараро диффузияланиш. Аҳмедова В.А	227
40	Миллий Характер масаласининг жаҳон адабиётшунослигида ўрганилиши Қаюмов А	236
41	Инглиз ва ўзбек тилларида ирригация ва мелиорация терминларининг морфологик таҳлили«инсон нечта тил билса, у шунча одамдир»Гёте Ахмедов О.С, Назарова С.А	241
42	Нишотийнинг “хусн ва дил” достонида муболаға санъати Маматқулов М.Р	247
43	Қанотли сўз, афоризм ва фразеологик бирлик тушунчаларининг ўзаро фарқи Исакова Г. Н	252
44	Социально-лингвистическая репрезентация понятия «учитель» Носирова М.О	258
45	К. Boldikning adabiyotshunoslik terminlari qisqacha oksford izohli lug'atining leksikografik va etimologik tahlili Saidova M U	263